

TADBIRKORLIK FAOLIYATIGA BOG‘LIQ JINOYATLARNI OLDINI OLISH CHORA-TADBIRLARINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Abdusalimov Ma'murjon To'ychi o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti magistranti.

“International school of finance technology and science” MCHJ Instituti

Bosh yuriskonsulti

Annotatsiya. Mazkur maqola tadbirkorlik faoliyatiga to‘sqinlik qilish va qonunga xilof ravishda aralashish bilan bog‘liq jinoyatlar javobgarlik tushunchasi, tadbirkorlik faoliyatiga to‘sqinlik qilish va qonunga xilof ravishda aralashish bilan bog‘liq jinoyatlar uchun rivojlangan xorijiy mamlakatlarda javobgarlikka tortish masalalari, shuningdek, tadbirkorlik faoliyatiga to‘sqinlik qilish va qonunga xilof ravishda aralashishga oid jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishdagi muammolar.

Kalit so‘zlar: Tadbirkorlik faoliyatiga to‘sqinlik qilish, xususiy mulk, jinoyat kodeksi, jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish, xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning huquqlari, jinoiy javobgarlik.

Абстрактный. В статье рассмотрено понятие ответственности за преступления, связанные с воспрепятствованием предпринимательской деятельности и незаконным вмешательством, вопросы привлечения к ответственности в развитых зарубежных странах за преступления, связанные с воспрепятствованием предпринимательской деятельности и незаконным вмешательством, а также проблемы предпринимательской деятельности при квалификации преступлений. препятствования и незаконного вмешательства.

Ключевые слова: Воспрепятствование предпринимательской деятельности, частная собственность, уголовный кодекс, классификация преступлений, права субъектов предпринимательства, уголовная ответственность.

Abstract. This article deals with the concept of responsibility for crimes related to obstruction of business activity and illegal interference, issues of prosecution in developed foreign countries for crimes related to obstruction of business activity and illegal interference, as well as to business activity problems in qualifying the crimes of obstruction and unlawful interference.

Key words: Obstruction of business activity, private property, criminal code, classification of crimes, rights of business entities, criminal liability.

KIRISH

Tadbirkorlik sub'ektlari huquqlarini himoya qilish, shu jumladan, ularning faoliyatiga asossiz aralashish, noqonuniy tekshirish o'tkazish hamda murojaatlarini ko'rib chiqishdagi qonunbuzilishi holatlarining oldini olish borasida 2018-yilning mamlakatimizda "Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili" deb e'lon qilinishi munosabati bilan PF-5308-sonli Farmonda faol tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay huquqiy, tashkiliy sharoitlar yaratish hamda tadbirkorlik sub'ektlarini himoya qilishning huquqiy kafolatlarini va ular faoliyatiga noqonuniy aralashishlarning oldini olish mexanizmlarini yanada takomillashtirish nazarda tutilgan.¹

Ta'kidlash lozimki, bugungi kunda tadbirkorlik faoliyatiga qonunga xilof ravishda aralashish hamda unga to'sqinlik qilish bilan bog'liq jinoyatlarning oldini olishda O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining Tadbirkorlar murojaatlarini ko'rib chiqish qabulxonalari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik sub'ektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman), Savdo sanoat palatasi, Bosh vazirning Tadbirkorlar murojaatlarini ko'rib chiqish qabulxonalari huzurida Tadbirkorlarning jamoatchilik kengashlari faoliyatini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Jumladan, 2019-yil 14-may kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash va himoya qilish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoniga² muvofiq hududlardagi tuman (shahar)larda O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining Tadbirkorlar murojaatlarini ko'rib chiqish qabulxonalari faoliyati yo'lga qo'yildi. Qabulxonalar faoliyatining asosiy yo'nalishi tadbirkorlar bilan ishlashni sifati, tezkorligini oshirish hamda ularning qonuniy talablarini amaliy va samarali ro'yobga chiqarishdan iborat.

TADQIQOT METADOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik sub'ektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman)ga 2019-yilda tadbirkorlardan jami kelib tushgan 3202 ta murojaatdan 2706 tasi o'z yechimini topgani, murojaatlarning 33 %da mahalliy davlat hokimiyati organlari qarorlari, 12,3 %da yer ajratish,

12 %da nazorat qiluvchi organlar va 10 %da banklar faoliyati, 7 %da soliq sohasiga oid qonun

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 22 январдаги "2017 – 2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясини "Фаол тadbirkorlik, инновацион ғоялар ва технологияларни қўллаб-қувватлаш йили"да амалга оширишга оид давлат дастури тўғрисида"ги ПФ-5308-сонли Фармони. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси.

² Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Тadbirkorlik фаолиятини қўллаб-қувватлаш ва химоя қилиш тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги Фармони. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 15.05.2019 й., 06/19/5718/3131-сон.

hujjatlari, 6,3 %da sud qarorlari va ularning ijrosi bilan bog‘liq, shuningdek, 19,4 %da boshqa turli yo‘nalishdagi masalalar ko‘tarilgan. Tadbirkorlarning huquq v qonuniy manfaatlarini tiklash yuzasidan 134 ta taqdimnoma, 11 ta xulosa, 66 ta ogohnoma va 138 ta ma‘muriy bayonnoma rasmiylashtirilib, sudlarga yuborilganligi natijasida mansabdor shaxslarning 203 nafari intizomiy, 114 nafari ma‘muriy javobgarlikka tortilganligi, ayniqsa davlat organlari va tashkilotlari tomonidan noqonuniy qabul qilingan 211 ta qaror bekor qilinganligi³ mazkur tuzilmaning tadbirkorlik faoliyatiga qonunga xilof ravishda aralashish hamda unga to‘sqinlik qilish bilan bog‘liq jinoyatlarning oldini olishdagi hissasini ko‘rsatadi.

Shu nuqtai nazardan, tadbirkorlik faoliyatiga qonunga xilof ravishda aralashish hamda unga to‘sqinlik qilish holatlarining oldini olish va profilaktika qilish maqsadida mansabdor shaxslar tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik sub‘ektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha vakilning faoliyatiga to‘sqinlik qilish, unga bila turib yolg‘on axborot berish, xuddi shuningdek mansabdor shaxslar tomonidan murojaatlarni, ogohlantirishlarni, taqdimnomalarni ko‘rib chiqmasdan qoldirish yoki ularni ko‘rib chiqish muddatlarini uzrli sabablarsiz buzish yoxud ular yuzasidan bila turib qasddan ishonchsiz ma‘lumotlarni taqdim etganligi uchun ma‘muriy javobgarlik belgilanishi maqsadga muvofiq.

Vaholanki, “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik sub‘ektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha vakil to‘g‘risida”gi qonunining 26-moddasida Tadbirkorlarning huquqlarini himoya qilish bo‘yicha vakil to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik nazarda tutilgan. Biroq, MJtKning amaldagi tahririda bu uchun ma‘muriy javobgarlik nazarda tutilmagan.

Shuningdek, Bosh vazirning Tadbirkorlar murojaatlarini ko‘rib chiqish qabulxonalarida huzurida Tadbirkorlarning jamoatchilik kengashlari hamda kengash to‘g‘risidagi tasdiqlangan namunaviy nizomga ko‘ra kengash jamoatchilik asosida faoliyat olib borib, uning faol tadbirkorlar, huquqshunoslar va jamoatchilikning boshqa vakillaridan iborat fuqarolar orasidan saylab olingan tarkibi tadbirkorlikni rivojlantirish muammolarini bartaraf etishga qaratilgan takliflarni ishlab chiqishi belgilangan⁴.

Litsenziya, ruxsat etish xususiyatiga ega boshqa hujjatlarni berish tartibi, muddatlarini buzish, litsenziya, ruxsat berish tartib-taomillarining qonunda nazarda tutilmagan yangi turlarini noqonuniy ravishda tatbiq etishda ifodalanadigan jinoyatning oldini olish uchun barcha turdagi litsenziya va ruxsat etish xususiyatiga

³ <https://biznesvakil.uz/uz/menu/workdone>

⁴ Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Ўзбекистон Республикаси Бош вазирининг Тадбиркорлар murojaatlarini kўrib chiqish qabulxonalarida huzurida Тадбиркорларнинг jamoatchilik kengashlarini tashkil etish tўғрисида”gi qarori. Qonun hujжатlari maълumotlari milliy bazasi, 05.10.2019 й., 09/19/848/3874-сон.

ega hujjatlarni berishning belgilangan tartibi hamda muddatlari aniq ko'rsatilgan holda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi davlat xizmatlari markazlari tomonidan ularni onlayn olish amaliyotini joriy qilish maqsadga muvofiq.

tadbirkorlik sub'ektining davlat soliq xizmati inspeksiyalari saytidagi shaxsiy kabineti orqali u yuritayotgan faoliyat bo'yicha qo'llanilayotgan tadbirkorlarga berilgan imtiyoz va preferensiyalarni qo'llashni qonunga xilof ravishda rad etish, qo'llamaslik yoki qo'llashga to'sqinlik qilishda ifodalanadigan jinoyatchilikning oldini olishga xizmat qiladi Tadbirkorlik faoliyatiga qonunga xilof ravishda aralashish hamda unga to'sqinlik qilish bilan bog'liq jinoyatlarning oldini olishda prokuror nazoratini kuchaytirish, bu turdagi nazoratning ixtisoslashuviga erishish fikrini ilgari surmoqdalar.

Jumladan, prokuror nazorati sifatida tadbirkorlikning huquqiy himoyasini ta'minlashga qaratilgan qonunlar ijrosi ustidan nazorat yo'nalishini prokuratura organlari faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biri etib alohida belgilash ko'plab tadqiqotchilar, xususan, A.B.Komilov, D.Madyakin va J.Idilova va boshqalar⁵ tomonidan ham ilgari surilmoqda. Aytish mumkinki, mamlakatimizda ushbu sohada sezilarli qadamlar qo'yilgan.

Bundan tashqari tadbirkorlik faoliyatiga qonunga xilof ravishda aralashish hamda unga to'sqinlik qilish bilan bog'liq jinoyatlarning oldini olish choralari sifatida quyidagilarni amalga oshirish mazkur turdagi jinoyatchilikning oldini olishga xizmat qiladi:

birinchidan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik sub'ektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakilning yagona ishonch telefonini joriy qilish;

ikkinchidan, tadbirkorlik faoliyatiga to'sqinlik qilishni profilaktika qilish choralari sifatida iqtisodiyot va sanoatni sog'lomlashtirish, bozor va investitsiya sharoitlarini yaxshilash uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, davlat xizmatchilarining ijtimoiy va moddiy ta'minotini oshirish, soliq yukini kamaytirish;

uchinchidan, iqtisodiyotni erkinlashtirish va tadbirkorlik faoliyatiga to'sqinlik qilishni bartaraf etishning asosiy vazifasi, tadbirkorlik sub'ektlariga nisbatan byurokratik bosimni kamaytirish va tadbirkorlik faoliyatining barcha sub'ektlari uchun iqtisodiy erkinlik darajasini oshirish;

to'rtinchidan, bozor ishtirokchilari iqtisodiy mas'uliyatini kuchaytirgan holda, barcha tadbirkorlik sub'ektlarini bozorga kirishini soddalashtirish;

⁵ Комилов А.Б. Тadbirkorlikni huquqiy himoya qilishga qaratilgan qonunchilik ijrosi ustidan prokuror nazoratini tashkil etish. Ўzbekiston Respublikasi Bo'sh prokuraturasida Akademiya Axborotnomasi. №2, (38), 2019. – Б. 43.; Мадьякин Д.А. Проблемы совершенствования прокурорского надзора за исполнением законов в сфере предпринимательской деятельности: Дисс. ... канд. юрид. наук. – М.: Научно-исследовательский институт проблем законности и правопорядка при Генеральной прокуратуре РФ, 2005. – С. 43.; Идилова Ж.И. Прокурорский надзор за исполнением законодательства о защите малого и среднего предпринимательства: состояние и пути оптимизации: Дисс. ... канд. юрид. наук. – Екатеринбург.: Уральская государственная юридическая академия, 2012. – С. 73.

beshinchidan, yuridik shaxslarni davlat ro'yxatidan o'tkazish va tugatish jarayonini soddalashtirish (xabardor qilish tartibiga o'tkazish);

oltinchidan, litsenziyalanadigan faoliyat turlarini qisqartirish va litsenziya olish jarayonini soddalashtirish;

yettinchidan, majburiy sertifikatlanadigan tovarlar sonini qisqartirish va muvofiqlikni tasdiqlashning boshqa muqobil usullarga o'tish (deklaratsiyalash, ixtiyoriy sertifikatlash va hk.);

sakkizinchidan, nazorat qiluvchi davlat organlari va idoralarning vakolatlarini bir-birini takrorlanmaydigan tarzda aniq belgilash;

to'qqizinchidan, mansabdor shaxslarning tekshiruv va boshqa nazorat chora-tadbirlarini amalga oshirishdagi noqonuniy xatti-harakatlari ustidan shikoyat qilish tartib-taomillarini tadbirkorlar e'tiboriga doimiy yetkazish;

o'ninchidan, tadbirkorlik sub'ektlariga nisbatan nazorat qiluvchi organlar tashabbusi bilan amalga oshiriladigan tekshiruvlar sonini minimallashtirish.

Mazkur chora-tadbirlarning amalga oshirilishi mulkni va mulkiy huquqlarni jinoiy tajovuzlardan qo'riqlash, tadbirkorlik faoliyatini jinoyat ob'ekti sifatida belgilash, samarasiz fuqarolik va ma'muriy-huquqiy vositalardan jinoyat-huquqiy muhofazalash tendensiyasiga o'tish bo'yicha qonunchilikni takomillashtirish hamda mulk va tadbirkorlik faoliyatiga qarshi jinoyatlarni oldini olishning yangi profilaktik yo'nalish va istiqbollari belgilashga xizmat qiladi.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy mustaqillik - Yangi O'zbekistonning mustahkam asosidir. O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o'ttiz bir yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. <https://president.uz/uz/lists/view/5484>.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-fevraldagi PF-21-sonli "Tadbirkorlik subyektlarini toifalarga ajratish mezonlari hamda soliq siyosati va soliq ma'muriyatchiligini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan 2022-yildagi "ochiq muloqoti"da belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-364-son qarori.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 4-sentabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan 2023-yildagi ochiq muloqotida belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-292-son qarori.

6. “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni (02.05.2012 y. O‘RQ-328-son).
7. “Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni (24.09.2012 y.)
8. “Ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori (05.04.2019 y).

